

Uzluksiz ta'lim tizimida menejerlik kompetentsiyasini rivojlantirish masalalari

M.F.Axmadjonova

M. E.Xaydarov

Nizomiy nomidagi TDPU

Annotatsiya: Maqolada uzluksiz ta'limning mazmun-mohiyati, uni tashkil etish shakllari va tamoyillari hamda globallashuv sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda uzluksiz ta'limning insonlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. SHuningdek, respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh etish tendensiyalari tahlil qilinib, tavsiyalar berilgan.

Kalitli so'zlar: ta'lim, uzluksiz ta'lim, "uzluksiz ta'lim" konsepsiyasi, uzluksiz ta'lim tizimi, ta'lim shakllari, hayot davomida ta'lim olish, innovatsion jamiyat.

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. SHunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta'lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ba'zi bir manbalarga ko'ra, ta'limning uzluksizligi to'g'risidagi ilk g'oyalarni ba'zi bir G'arb tadqiqotchilari hatto Suqrot, Aflotun, Aristotel' va Senekanning insonning doimiy ravishda ma'naviy takomillashuvi haqidagi diniy-falsafiy tasavvurlarida va ilmiy asarlaridan hamda bunga o'xshash g'oyalarni muqaddas islom dinimizda ham uchratishimiz mumkin. Uzluksiz ta'lim g'oyasining paydo bo'lishi o'z navbatida, bir tomondan pedagogik konsepsiya sifatida, boshqa tomondan esa, amaliyotning natijasida paydo bo'lgan.

Umuman, bugungi kun tushunchasidagi kattalar ta'limi rivojlanishi XIX asrdagi sanoat inqilobi natijasida fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar oqibati bilan bog'liq.

SHaxs ijtimoiy o'zligini anglashning mukammallik darajasiga erishganidan so'ng iftixor tuyg'usini his eta boshlaydi. Har bir inson ijtimoiy muhitda shaxsga aylanishi mumkin, ammo o'zligini anglashning eng yuqori darajaga yetishi hammaga ham nasib etavermaydi. O'zligini anglashning mukammallik darajasiga erishgan shaxsgina elim, yurtim, deb yashashi bilan bir qatorda, shu el-yurti baxti-saodati, tinchligi yo'lida jonini ham qurbon qila oladigan fidoyi shaxs bo'ladi.

"Uzluksiz ta'lim" konsepsiyasi birinchi marta YUNESKOning 1965 yildagi forumida taniqli nazariyotchi P. Langrand tomonidan o'rtaga tashlanib sezilarli darajada nazariy va amaliy rezonansga sabab bo'ldi va natijada o'tgan asrning 60 yillari oxiriga kelib mazkur ibora ilmiy tahlilning maxsus predmetiga aylandi. Uzluksiz ta'limni xalqaro darajada o'rganishning ustuvorliklari o'z ichiga ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlovchi

uzluksiz kasbiy ta'lim, qo'shimcha ta'lim, kattalar ta'limi, aholining himoya qilinmagan qatlami ta'limini va iqtisodiy modellarni qamraydi.

Uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga sezilarli darajada hissa qo'shgan MDH olimlaridan S.G.Vershlovsiy, N.V.Vasilenko, S.M. Vishnyakova, V.I.II'ina, O.M. Nikandrov, V.I. Podobeda va boshqalarning nomlarini keltirib o'tish mumkin.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uzluksiz ta'lim borasida bir-biridan farqlanuvchi bir necha nuqtai nazarlarni uchratish mumkin. Ulardan eng ko'p uchraydiganlari: "uzluksiz ta'lim-butun hayot davomida egallaydigan ta'lim", "uzluksiz ta'lim - kattalar uchun ta'lim", "uzluksiz ta'lim - bu uzluksiz kasbiy ta'lim" kabi iboralar qo'llanilsa, jahon pedagogikasida uzluksiz ta'lim bir nechta atamalar bilan izohlanib ular ichida "davom etuvchi ta'lim", "hayot davomida o'qish", "doimiy o'qish" iborolari keng qo'llaniladi.

Zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy haëtga mos, mutanosib, ijtimoiy faol shaxs sifatida o'zligini namoën etishining eng to'g'ri va mukammal yo'li shaxs o'zini ilmu ma'rifat, yuksak ma'naviyat va madaniyat bilan o'rab, bu haëtda o'z o'rnini topib, uni èmonlikka boshlovchi nafsi va hoyu havaslarini jilovlab olib, o'z shaxsini tarbiyalab, komillik sari intilib yashashdan iborat. Faqat shundagina u pedagog degan nomga loyiq bo'lib, haqiqiy kasbiy baxtga erisha oladi. Zamonaviy pedagogda esa fidoyi inson sifatida shakllanishga ta'sir etuvchi bunday zamonaviy kasbiy sifatlar bo'lishini zamon talab etmoqda.

Yuqoridagi tahlilga ko'ra, zamonaviy darsda innovatsion, pedagogik hamda axborot texnologiyalar tatbiq etilmasa, ta'lim o'z samarasiga ega bo'lmaydi. Bu jaraënda esa o'qituvchining zamonaviy kasbiy sifatleri yetakchi o'ringa ega. SHu sababli uzluksiz pedagogik ta'limni tashkil etish va rivojlantirishda ushbu muammoning ilmiy jihatdan to'liq o'z yechimiga ega bo'lishi hozirgi kun pedagogikasining eng muhim va dolzarb vazifasiga aylandi. Ta'limni innovatsion, pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida tashkil etish davr talabidan kelib chiqadi. Ayni paytda, davr o'z o'zanidan tashqariga chiqib ketishga ham yo'l qo'ymaydi. Zero, har qanday ta'limni tashkil etish shaklining asosida muayyan ijtimoiy ehtiëjlar ètadi. Ta'lim-tarbiya jaraënining maqsad va vazifalari ham ana shunday ehtiëjlar asosida yuzaga keladi va bu ko'plab adabiëtlarda ilmiy asoslab berilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'limni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilish faqat yangi bilimlarni o'rganish, ma'lumot olish bilan cheklanadigan bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati bir tomonlamaligicha qolib ketadi. Ta'limni zamonaviy pedagogik, axborot hamda innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish jaraëni shunchaki kechadigan jaraën emas. Uning metodikasi esa pedagogika fanida ishlab chiqilgan bo'lib, muntazam ravishda takomillashtirishni talab etadi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlariga o'tish barcha sohalar kabi ta'lim sohasini ham isloh qilish zaruratini yuzaga keltirdi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayërlash tizimini va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi. SHuningdek, kadrlar tayërlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jaraënining moddiy texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv va o'quv-uslubiy va ilmiy adabiët hamda ko'rgazmali materiallarning yetarli emasligi, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro hamkorlik va integratsiyaning yo'qligi va hokazolar kadrlar tayërlashdagi muhim kamchiliklar edi.

Bular esa zamon talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayërlashga to'sqinlik qilaëtgan edi. SHuning uchun ta'limni jahondagi ilg'or tajribalarni o'rganib, ulardan ijodiy foydalangan holda tashkil etish zarurati paydo bo'ldi. Bunda ta'lim sohasini tubdan isloh

qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayèrlash milliy tizimini yaratish maqsad qilib qo'yildi va natijada ta'limning mazmuni yangi ko'nikmalar, axborot bilan ishlash, pedagogik muammolarni ijodiy hal etish qobiliyatlari rivojlanishi bilan boyib bormoqda. Axborotni ifodalashning odatdagi usullari – og'zaki va èzma nutq o'rnini ta'limning komp'yuter vositalari egallamoqda, internet tarmog'idan keng foydalanilmoqda.

Internetdagi ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda bir yarim milliardga yaqin kishi, ya'ni sayèramizdagi har to'rtinchi kishi axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida ta'limiy, kasbiy va shaxsiy muomalada ishtirok etmoqda. SHu bilan birga dunè bo'yicha ilm-fan rivojining bugungi holati, ayniqsa, bu boradagi zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini qo'ymoqda.

Zamonaviy, yetuk mutaxassislar tayèrlashda milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar asosida ta'lim va tarbiya uzviy bog'liqlikda olib borilishi belgilab berildi. CHunki ajdodlarimiz doimo ta'lim va tarbiyani birgalikda olib borganlar va bu borada ulkan merosga ega bo'lganlar. Bu meros bugungi avlodni mardlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ajdodlarimiz farzandni èshligidan mehnatsevar, mas'uliyatni sezadigan, berilgan vazifalarni o'z vaqtida aniq bajaradigan qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratganlar. Biz ajdodlarimiz tajribasini bugungi globallashuv jaraènida ham qo'llashimiz, bu borada esa, har bir ota-ona, o'quv muassasasi jamoasi va mahallaning èrdamiga tayanishimiz kerak. Ta'lim va tarbiyaning samaradorligi barchamizning èshlar tarbiyasiga mas'uliyat bilan qarashimiz, ularning xatti harakatlariga nisbatan e'tiborli va sinchkov bo'lishimiz, tajribada sinalgan milliy urf-odat va qadriyatlardan unumli foydalanishimizga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda).
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 15-son, 150-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2018 yil 5 yanvardagi axborotnomasi, 03/18/456/0512-sonli qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» gi PF-4958 sonli farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi « Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909- sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohaları va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ3151-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son farmoni.